



QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida

Raqamlar:

Qurilish ishlari
hajmi -
2925,8 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
4,6 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -
63,5 %

Norasmiy sektor
ulushi -
31,9 %

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2925,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,6 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmining yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 131,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,6 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,8 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,5 % yoki 1859,5 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 143,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 31,9 % yoki 934,7 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,4 % ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **131,6 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **121,8 %**

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi - **1859,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **143,1%**

Norasmiy sektor


- hajmi- **934,7 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **125,4 %**

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatida jami 2925,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 949,9 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 131,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,5 mlrd.so'mga ko'paydi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 1859,5 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 691,6 mlrd.so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasi 934,7 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 223,8 mlrd.so'mga ko'paydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 2106,5 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 741,4 mlrd.so'mga ko'paygan.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 263,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13,1 mlrd.so'mga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 555,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 221,6 mlrd. so'mga ko'paygan.

Yanvar -noyabr oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,0 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 54,7 % (7,9 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 44,3 % (7,6 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 37,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 13,0 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 61,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 13,1 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 0,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi va 1,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2759,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 foizga ko'paydi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Pop tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining 42,7 % yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (686,2 mlrd.so'm yoki 145,3 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (306,1 mlrd.so'm yoki 138.8 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Namangan tumanida (269,2 mlrd.so'm yoki 145,5 %) - Namangan tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar- noyabr (mlrd,so'm)	2019 yil yanvar- noyabr (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
Viloyat bo'yicha jami:		1975,9	2925,8	135,6	100,0
1	Namangan shahar	428,9	686,3	145,3	23,5
2	Mingbuloq tumani	91,5	134,7	135,7	4,6
3	Kosonsoy tumani	182,8	270,0	135,6	9,2
4	Namangan tumani	168,6	269,2	145,5	9,2
5	Norin tumani	98,6	109,6	102,7	3,7
6	Pop tumani	154,9	214,8	127,6	7,3
7	To'raqo'rg'on tumani	126,6	190,0	137,8	6,5
8	Uychi tumani	201,3	306,1	138,8	10,5
9	Uchqo'rg'on tumani	172,3	221,0	117,5	7,6
10	Chortoq tumani	128,9	185,2	132,9	6,3
11	Chust tumani	118,3	184,5	143,9	6,3
12	Yangiqo'rg'on tumani	103,2	154,4	138,2	5,3

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 686,3 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,3 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 270,0 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,6 % ga o'sdi, Pop tumanida 214,8 mlrd,so'mlik


qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,6 % ga o'sdi, Uychi tumanida 306,1 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,8 % ga o'sdi. Chust tumanida 184,5 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,9 % ga o'sdi, Chortoq tumanida 185,2 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,9 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 23,5 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 9,2 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,5 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 3,7 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 4,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida 5,3% ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining
umumiy hajmda hududlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 230-84-85**